

O'RTA MAXSUS VA PROFESSIONAL TA'LIM TASHKILOTLARI PEDAGOG KADRLARINI ATTESTATSIYADAN O'TKAZISH UCHUN YIGIRISH TEXNOLOGIYASI FANIDAN MALAKA TEST SINOVI TOPSHIRIQLARI SPETSIFIKATSIYASI

I. Maqsad

Mazkur test varianti tafsilotining maqsadi kasbiy ta'lim fanlarini bilish darajasini baholashning malaka toifalarini berish test tizimi doirasida Yigirish texnologiyasi fani talabgorlarining bilim darajasini aniqlash va sertifikatlash uchun qo'llaniladigan test varianti formati (topshiriqlar soni, turi, vaqt me'yori), fan mazmuni tarkibi, kognitiv ko'nikma darajalari, baholash mezonlari va talabgorlarning tayyorgarlik darajasiga qo'yiladigan talablarni belgilashdan iborat.

II. Me'yoriy asoslar

1.O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 17-sentyabrdagi **"Maktabgacha, umumiy o'rta, o'rta maxsus, professional va maktabdan tashqari ta'lim tashkilotlari pedagog kadrlarini attestatsiyadan o'tkazish tartibini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"**gi 572-sonli Qarori.

III. Baholash qamrovi: mazmun sohalari

Yigirish texnologiyasi

1. To'qimachilik sanoatining rivojlanishi va uning tarmoqlari. Yigirish sistemalari;
2. Xomashyo, tolalarning texnologik xossalari, saralanma tuzish va ip xossalarini loyihalash;
3. Tolalarga ishlov beruvchi uskunalarning texnologik tizimlari, titish, aralashtirish va tozalash jarayonlari.
4. Yigirish mahsulotlari notekisligi;
5. Tarash jarayoni. Tarash mashinalari;
6. Qayta tarash jarayoni;
7. Bir tekis pilta tayyorlash;
8. Pilik tayyorlash;
9. Halqali usulda ip yigirish;

IV. Baholanadigan mazmun sohalari va konstruktlar

T/r	Mazmun sohalari	Konstruktlar	Ulushi (%)	Testlar soni
1	To'qimachilik sanoatining rivojlanishi va uning tarmoqlari. Yigirish sistemalari.	To'qimachilik sanoatining ahamiyati va tarmoqlari, ip ishlab chiqarish sohalari, ip yigirish bosqichlari, yigirish sistemalari, paxta va kimyoviy tolalardan ip ishlab chiqarish qonuniyatlari to'g'risidagi bilim va malakalarga ega bo'lishi lozim	15 %	6 ta
2	Xomashyo, tolalarning texnologik xossalari, saralanma tuzish va ip xossalarini loyihalash.	Ip yigirish uchun xom ashyo tanlash qoidalari, to'qimachilikda tabiiy va kimyoviy tolalar xossalari, ularning qiyosiy tahlili, paxta tolasining asosiy xossalari, nuqsonlari va klassifikatsiyasi to'g'risida bilim va ko'nikmalarga ega bo'ladi. Tipli saralanmalar, aralashma tuzishning asoslari, yigirilgan ip xossalarining xom ashyo xossalariga bog'liqligi omillarni tahlil qilish to'g'risidagi bilim va ko'nikmalarga ega bo'lishi lozim.	17,5 %	7 ta
3	Tolalarga ishlov beruvchi uskunalarning texnologik tizimlari, titish, aralashtirish va tozalash jarayonlari.	Titish jarayonining maqsadi va mohiyati, titishning zaruriyligi va usullari, titilganlik darajasi va samaradorligi, ularga ta'sir etuvchi omillar, titish uskunalarini, igna sirtli titish mashinalari, avtotoyitgichlar bilish va ulardan foydalana olish. Aralashtirish jarayonining maqsadi va mohiyati, aralashtirish usullari va ko'p funksiyali aralashtirgichlarni bilish, farqlash hamda qo'llanilish sohalari tahlil qiladi, tozalash jarayonining maqsadi va mohiyatini, tozalash usullari, asosiy ishchi organlari va moslamalarini, tozalash samaradorligi va turlarini, dastlabki tozalash, asosiy tozalash, aerodinamik tozalash mashinalarini, titish tozalash agregati mashinalarini boshqarish ko'nikmalariga ega bo'lishi kerak.	10 %	4 ta
4	Yigirish mahsulotlari notekisligi.	Notekislik tushunchasining mohiyati, notekislikning turlari va klassifikatsiyasi, notekislikning kelib chiqish sabablari, notekislikning zararliligi, notekislikni kamaytirish choralari bilishi va ulardan foydalana olishi.	7,5 %	3 ta
5	Tarash jarayoni. Tarash mashinalari.	Tarash jarayonining maqsadi va mohiyati, tarash mashinasining vazifalari va mashinasining turlarini, shlyapkali tarash mashinasini, garnitura nomeri haqida tushuncha, garnitura turlari va	7,5 %	3 ta

		qo'llanilishi. Garnituralarga xizmat ko'rsatish. Bir tekis tolali qatlam hosil qilish usullari. Tarash mashinasini ta'minlash usullari va unumdorligi malakalariga ega bo'lishi kerak.		
6	Qayta tarash jarayoni.	Qayta tarash jarayonining maqsadi va mohiyati. Qayta tarash sistemasining xom ashyosi, mahsulotni qayta tarashga tayyorlash usullari, holat shakllantiruvchi mashinalarning turlari bilishi va ulardan foydalana olishi. Qayta tarash mashinasining tuzilishi va ishlashi, qayta tarash mashinasining davrlari, ishchi organlarning o'zaro mutanosib ishlashi, ta'minlovchi mexanizmlari, pilta shakllantirish, cho'zish asbobi va pilta taxlagichlarni to'g'risidagi bilim va ko'nikmalarga ega bo'lishi lozim.	10 %	4 ta
7	Bir tekis pilta tayyorlash.	Cho'zish jarayonining maqsadi va mohiyati, cho'zish nazariyasi haqida tushunchasi va cho'zish miqdorini aniqlash, cho'zish maydonida tolalar harakatining nazorati, umumiy cho'zishni xususiy cho'zishlarga ajratishni, qo'shish jarayonining maqsadi va mohiyati, qo'shish jarayoning afzallik va kamchiliklarini, piltalash mashinasining asosiy ishchi organlarini, piltalash mashinasining unumdorligi bo'yicha bilim va ko'nikmalarga ega bo'lishi lozim.	12,5 %	5 ta
8	Pilik tayyorlash.	Pilik tayyorlashning maqsadi va mohiyati, piliklash mashinasining vazifalari va turlari, cho'zish asboblarning turlarini, pilikni pishitish va o'rashni, pishitish jarayonining maqsadi va mohiyati ishlashi bo'yicha ko'nikmalariga ega bo'lishi kerak.	7,5 %	3 ta
9	Halqali usulda ip yigirish.	Yigirish mashinalari taraqqiyotining bosqichlari, ip yigiruv mashinalarini takomillashtirishni, ip yigirishning maqsadi va mohiyatini, halqali yigirish mashinasining ishlashi, ip o'tkazgich, ip ajratkich halqali planka, halqa, yugurdak va urchuqlar turlarini, urchuqlarga harakat uzatish va mashinasining o'rash mexanizmi bilishi va ulardan foydalana olishi.	12,5 %	5 ta

V. Baholanadigan kognitiv ko'nikmalar va taqsimoti

T/r	Kognitiv daraja	Izohi	Ulushi (%)
1.	Bilish	Fanga doir nazariy ma'lumotni, atama va qoidalarni eslab qolish, tushunish, nazariy jihatdan tahlil qila olish	22,5 %
2.	Qo'llash	O'zlashtirgan nazariy bilim va tushunchalarni yangi kontekstlarda (ta'limiy, muammoli vaziyat va pedagogik-psixologik holatlarda) ishlata olish	42,5 %
3.	Mulohaza qilish	Muayyan faktlar, dalillar va normalarni mantiqiy bog'liq tarzda tahlil qilib, jarayonlarning ketma-ketligini farqlab, vaziyatni analiz qilib, xulosalar chiqara olish	35 %

VI. Test turlari va taqsimoti

T/r	Test turi	Izohi
1.	Y1	To'rtta variantdan bittasi to'g'ri bo'lgan muqobil javobli yopiq test
2.	Y2	Tartiblangan bir nechta javoblardan to'g'rilarni topishni talab qiladigan muqobil javobli yopiq test
3.	Y3	Moslashtirishni talab qiladigan yopiq test
4.	Y4	Gap yoki jarayonlarni to'g'ri ketma-ketlikda joylashtirish talab etiladigan yopiq test

VII. Baholash mezonlari va ajratilgan vaqt

Test topshiriqlari umumiy 80 ball bilan baholanadi.

Har bir to'g'ri javob 2 ball, noto'g'ri javob esa 0 ball bilan baholanadi.

VIII. Imtihon tartibi

Taqiqlangan vositalar: imtihon vaqtida mobil telefon, aqlli soat, planshet yoki elektron eslatmalardan foydalanish qat'iy man etiladi.

Axloq va intizom: nusxa ko'chirish, yordam so'rash yoki yordam berish, imtihon davomida gaplashish, ruxsatsiz chiqish kabi holatlar taqiqlanadi.

Nazoratchi qoidabuzarlikni aniqlaganda, uni rasmiylashtirib, tinglovchini testdan chetlashtiradi va natijasi bekor qilinadi.

IX. Inklyuziya va moslashtirish

Alohida ta'limga ehtiyoji bor talabgorlar uchun qo'shimcha 15 % vaqt beriladi. Shuningdek, topshiriqlarning berilish shakli va turi ham ularga mos va qulay shaklda taqdim etiladi.

Ko'rish sohasida imkoniyati cheklangan talabgorlar savollarni o'qib berishi uchun maxsus texnik yordamchi bilan kelishiga ruxsat etiladi, faqat savolning to'g'ri javobini aytishi mumkin emas.

X. Tavsiya etilgan adabiyotlar

1. Jumanyazov Q. va boshqalar. “To‘qimachilik mahsulotlari texnologiyasi va jihozlari”. Darslik. G‘.G‘ulom. Toshkent 2012
2. Pirmatov A. “Yigirish texnologiyasi”. Darslik. T., “Bilim va intellektual salohiyati” nashriyoti. Toshkent 2021.
3. A.Pirmatov, Sh.F.Maxkamova, F.F.Raxmatulinov. To‘qimachilik mahsulotlari texnologiyasi va jihozlari. Darslik. Yosh avlod matbaa nashriyoti. Toshkent 2022